



2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik
tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi


Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2020 – yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YaHMDagi ulushi **77,1** % ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga **9,5** birlikni tashkil qildi.
- 2020 – yilning yanvar - dekabrda **7,5** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **55,7** foizga ko'p.



2020 - yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2446 ta, savdoda 2165 ta, sanoatda 1788 ta, qurilishda 315 ta, yashash va ovqatlanishda 264 ta, tashish va saqlashda 105 ta tashkil etilgan.

**Yanvar - dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019 - y.	2020 - y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	15 509	21 563	6 054
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4 845	7 542	2 697
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	77,9	77,1	-0,8
Sanoat	%	42,0	47,3	5,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,0	97,3	-1,7
Investitsiya	%	73,3	44,0	-29,3
Qurilish	%	80,5	85,7	5,2
Chakana savdo	%	90,8	91,6	0,8
Xizmatlar	%	69,9	66,8	-3,1
Yuk tashish	%	74,5	72,5	-2
Yuk aylanmasi	%	79,9	85,8	5,9
Yo'lovchi tashish	%	90,2	93,3	3,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	94,7	95,6	0,9
Eksport	%	73,4	63,9	-9,5
Import	%	75,0	92,9	17,9



**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

YaHM

77,1%

Savdo

91,6%

Sanoat

47,3%

Qurilish

85,7%

Investitsiya

44,0%

Export

63,9%

Xizmatlar

66,8%

Import


92,9%

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 - yil yanvar - dekabr	2020- yil yanvar - dekabr	farqi (+;-)
Surxondaryo viloyati	4 845	7 542	2 697
shaharlar:			
Termiz sh.	870	824	-46
tumanlar:			
Angor	223	306	83
Bandixon	0	215	215
Boysun	170	423	253
Denov	638	1 044	406
Jarqo'rg'on	385	595	210
Qumqo'rg'on	338	767	429
Qiziriq	253	475	222
Muzrabot	210	374	164
Oltinsoy	183	367	184
Sariosiyo	198	295	97
Termiz	384	427	43
Uzun	236	360	124
Sherobod	284	510	226
Sho'rchi	473	560	87



**2020 - yil yanvar - dekabrda yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, % da**



2020 - yilning yanvar - dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Denov tumani – 13,8 %, Termiz shahri – 10,9 %, Qumqo'rg'on tumani – 10,2 %, Jarqo'rg'on tumani – 7,9 %, Sho'rchi tumani – 7,4 %, Sherobod tumani – 6,8 % va Qiziriq tumani – 6,3 % hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 - y. yanvar - dekabr	2020 - y. yanvar - dekabr	farq. (+;-)
Jami	4 845	7 542	2 697
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	511	2 446	1 935
Sanoat	985	1 788	803
Qurilish	600	315	-285
Savdo	1 810	2 165	355
Tashish va saqlash	130	105	-25
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	445	264	-181
Axborot va aloqa	53	67	14
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	55	56	1
Boshqa faoliyat turlari	256	336	80

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar - dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:






2020 – yil yanvar – dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan, 9,5 birlikni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga ko'ra*




2020 – yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 24,4 birlik, Termiz shahrida 22,4 birlik, Qiziriq tumanida 14,7 birlik, Boysun tumanida 13,1 birlik, Sherobod tumanida 11,3 birlik, Muzrabot tumanida 10,7 birlik, Angor tumanida 10,0 birlikni tashkil etgan. Sariosiyo tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,8 birlikka to'g'ri keldi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*



2020 - yilning yanvar – dekabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar – dekabr holatiga ko'ra, % da

2020 - yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 77,1 % ni tashkil qildi. (2019 - yilning yanvar – dekabrda 77,9 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

80,0%

2018- y.

77,9%


2019- y.

77,1%

2020- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan, % da)



2020 - yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Surxondaryo viloyati	47,3	85,7	66,8	44,0
shaharlar:				
Termiz sh.	42,1	97,4	53,7	55,4
tumanlar:				
Angor	92,1	100,0	66,2	75,5
Bandixon	100,0	90,7	80,3	81,5
Boysun	94,7	100,0	75,3	9,3
Denov	33,7	94,8	78,3	78,5
Jarqo'rg'on	37,7	92,6	63,1	47,0
Qumqo'rg'on	37,1	75,4	60,0	70,8
Qiziriq	98,9	91,1	72,7	67,3
Muzrabot	70,4	100,0	81,5	75,3
Oltinsoy	100,0	100,0	76,7	69,5
Sariosiyo	57,6	45,7	64,6	51,0
Termiz	89,4	99,3	66,1	54,7
Uzun	100,0	66,4	70,9	83,8
Sherobod	30,9	96,3	71,3	45,0
Sho'rchi	44,2	100,0	72,5	81,5

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Bandixon (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Uzun (100,0 %),
Qiziriq (98,9 %),
Boysun (94,7 %) va
Angor (92,1 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Angor (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Boysun (100,0 %),
Muzrabot (100,0 %),
Sho'rchi (100,0 %) va
Termiz (99,3 %) tumanlarida.


Xizmatlarda-

Muzrabot (81,5 %),
Bandixon (80,3 %),
Denov (78,3 %),
Oltinsoy (76,7 %),
Boysun (75,3 %) va
Qiziriq (72,7 %) tumanlarida.

2020 - yil yanvar – dekabr oylarida kichik biznes sub'yektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 139,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 63,9 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020 - yil yanvar – dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida – 100,0 %, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Boysun tumanida – 99,8 %, Sariosiyo tumanida – 94,3 % ni, eng past ko'rsatkich Sherobod tumanida – 22,8 % ni tashkil etdi.

2020 - yil yanvar – dekabr oylarida kichik biznes sub'yektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 188,9 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 92,9 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020 - yil yanvar – dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon tumanida – 100,0 %, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Uzun tumanida – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida – 47,2 % ni tashkil etdi.




2020 - yil yanvar – dekabr
o'ylarida kichik biznes
sub'yektlari tomonidan 2608,2
milliard so'mlik sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020 - yilning yanvar – dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (488,1 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (384,3 mlrd. so'm), Denov (292,6 mlrd. so'm), Sho'rchi (211,6 mlrd. so'm) va Sariosiyo (169,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (6,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2020 - yil yanvar – dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 47,3 foizni tashkil etdi.



2020 - yil yanvar – dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Qiziriq tumani (98,9 %), Boysun tumani (94,7 %), Angor tumani (92,1 %) Termiz tumani (89,4 %), Muzrabot tumani (70,4 %), Sariosiyo tumani (57,6 %) va Sho'rchi (44,2 %) tumanlari tashkil etdi. Sherobod tumanida (30,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 - yil yanvar – dekabr oylarida kichik biznes sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 11308,8 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019 - yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan 103,1 foizni tashkil qildi.



2020 - yilning yanvar – dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumanida (2828,6 mlrd. so'm), Termiz shahri (2007,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (1042,5 mlrd. so'm), Sherobod (637,6 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (607,9 mlrd. so'm) va Angor (516,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020 - yil yanvar – dekabr oylarida kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4020,0 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 85,7 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019 - yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan 113,8 foizni tashkil qildi.




2020 - yilning yanvar – dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (1168,5 mlrd. so'm), Sariosiyo (405,8 mlrd. so'm), Denov (327,5 mlrd. so'm), Boysun (309,0 mlrd. so'm), Sherobod (278,1 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (277,1 mlrd. so'm) hamda Sho'rchi (138,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2020 - yil yanvar – dekabr oylarida kichik biznes sub'yektlari tomonidan 5286,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 66,8 % ini tashkil qildi. 2019 - yilning yanvar – dekabriga nisbatan 3,1 % pasayish kuzatildi.



2020 - yilning yanvar – dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Denov tumanida (1272,8 mlrd. so'm), Termiz shahri (1246,8 mlrd. so'm), Muzrabot (289,2 mlrd. so'm), Sariosiyo (271,0 mlrd. so'm), Sho'rchi (270,7 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (261,1 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (253,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020 - yil yanvar – dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 72,5 foizni tashkil etdi. 2019 - yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 97,3 foizni tashkil qildi.


2020 - yil yanvar – dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 85,8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019 - yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 foizni tashkil qildi.



2020 - yil yanvar – dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,3 foizni tashkil etib, bu esa 2019 - yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan 103,4 foizga oshishiga olib keldi.




2020 - yil yanvar – dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,6 foizni tashkil etib, 2019 - yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan 101,0 foizga oshishi kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 - yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **841** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020 - yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,3 % (39 ta), sanoatda – 11,8 % (99 ta), qurilishda – 15,6 % (150 ta), savdoda – 38,5 % (337 ta) va xizmatlar sohasida – 29,8 % (216 ta) ni tashkil etdi.


** oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.*



2020 - yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020 - yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 14,0 punktga, qurilishda 10,3 punktga, xizmatlar sohasida 0,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9,8 punktga, sanoat sohasida 4,4 punktga, qurilishda 13,2 punktga, savdo sohasida 0,8 punktga, xizmatlar sohasida 0,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
2019-2020 – yillar IV choragida iqtisodiy
vaziyatini baholash, % da**


**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat korxonalarida 1,7 punktga, qurilish korxonalarida 7,4 punktga va xizmatlar sohasida 6,4 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 0,1 punktga va qurilishda 1,1 punktga oshdi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
2019 - 2020 – yillar IV choragida iqtisodiy
vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi,% da**


**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

Sanoat

Qurilish


Savdo

Xizmatlar







2020 - yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **132** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 39 ta (29,5 %), sanoat korxonalari – 30 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 22,7 %), qurilish – 6 ta (4,6 %), savdo – 41 ta (31,1 %) va xizmatlarda – 16 ta (12,1 %) sub'yekt ishtirok etdi.




2020 - yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020 - yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 - yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida ham deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 19,3 punktga, sanoat sohasida 23,3 punktga, qurilishda 16,7 punktga, savdo sohasida 17,5 punktga va xizmatlar sohasida 31,2 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019 - 2020 – yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020 - yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 12,8 punktga, sanoatda 6,2 punktga, qurilishda 16,0 punktga va xizmatlar sohasi korxonalarida esa 18,8 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 5,1 punktga, qurilishda 2,7 punktga va xizmatlar sohasida 0,9 punktga oshdi.



2019 - 2020 – yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68